

QISHLOQ XO‘JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI

Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna

ISFT instituti Buxgalteriya hisobi kafedrası
professori v.b., (PhD),

E-mail:tursunkulovagulchiroy@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligida biologik aktivlarni tan olish mezonlari va uning klassifikatsiyasi masalalari yoritilgan. Biologik aktivlarni tan olish va uni tasniflash bo‘yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning yondashuvlari va fikr-mulohazalari o‘rganilgan hamda xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, biologik aktiv, tan olish mezonlari, klassifikatsiya, moliyaviy hisobot xalqaro standarti.

Аннотация

В статье рассматриваются критерии признания биологических активов и их классификация. Изучены подходы и мнения экономистов и экспертов по вопросам признания и классификации биологических активов, разработаны выводы и предложения.

Ключевые слова: сельское хозяйство, биологический актив, критерии признания, классификация, международный стандарт финансовой отчетности.

Abstract

The article examines the recognition criteria of biological assets and their classification. The approaches and opinions of economists and experts on issues of recognition and classification of biological assets are studied, conclusions and proposals are developed.

Keywords: agriculture, biological asset, recognition criteria, classification, international financial reporting standard.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotining samarali ishlashi, investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish va sheriklar o‘rtasida haqqoniy munosabatlarni ta‘minlash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida ko‘plab o‘z yechimini ko‘tayotgan masalalar mavjud. Jumladan, biologik aktivlar hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini hisobga olish bo‘yicha ko‘plab masalalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan, biologik aktivlar hisobi bo‘limi munozarali bo‘lib qolmoqda. Shu bois, biologik aktiv tushunchasini belgilash va uning iqtisodiy mohiyatini ochib berish hamda qishloq xo‘jaligi xo‘jaliklari aktivlari tasnifidagi o‘rnini aniqlash muhimdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bibliografik hamda xujjatlarni rasmiylashtirish standarti(BHXS)ning 41-son “Qishloq xo‘jaligi”ga muvofiq qishloq xo‘jaligi faoliyatining o‘ziga xos jihatlarni aks

ettiradi va biologik aktivlar hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisobi, moliyaviy hisobotda aks ettirilishi va ma'lumotlarni oshkor etish tartibini belgilaydi [1].

Biologik aktivlar iqtisodiyoti biologik aktivlarni boshqarishning samarali tizimini yaratish, ularni baholashni asoslash, hisobga olish, iqtisodiy-statistik va ekonometrik tahlil, qishloq xo'jalik ob'ektlarini biotransformatsiyasidan olinadigan daromad, xarajatlar va moliya natijalarini shakllantirish muammolarini yechish bilan shug'ullanadi. Masalan, Zaxarova Ye.V. biologik aktivlarning iqtisodiy tasnifini turli belgilar (iqtisodiy mundarija, foydalanish muddati, maqsad, turlar va h.k.) bo'yicha beradi [2]. Muallif tomonidan iste'mol qilinadigan va ishlab chiqariladigan aktivlar, aylanma va aylanma bo'lmagan aktivlar, yetilgan va yetilmagan aktivlar kabi guruhlar ajratib ko'rsatilgan.

Trushkina I.R. esa biologik aktivlarni tanish mezonlari va baholash mexanizmlari, shuningdek, ularni hisobga olishda tanishni aks etish usullarini ko'rsatib bergan [3]. Mutaxassis olim biologik aktivlarni tan olishda Iqtisodiy nazorat, kelajakdagi iqtisodiy foyda, aniq identifikatsiya qilinishi mezonlarni asosiy deb hisoblaydi. Uning metodologiyasini aniq mezonlar, klassifikatsiyaning tizimliliigi va dinamik baholashga asoslangan. Uning yondashuvi nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy hisob-kitoblarda ham qo'llash mumkin bo'lgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Albatta, uni konkret holatlar va zamonaviy tendentsiyalar nuqtai nazaridan takomillashtirish zarur. Har qanday metodologiya dinamik bo'lishi lozim – tabiat resurslari va bozor sharoitlari o'zgargan sari, hisobga olish mexanizmlari ham yangilanishi kerak.

Biologik aktivlarni tan olish mezonlari bo'yicha bir qancha mutaxassislar o'z g'oyalarini ilgari so'rganlar va isbotlashga harakat qilishgan.

Iqtisodchi Herman Aguinis iqtisodiy foydani aniqlash va nazoratni baholash borasida konseptual yondashuvlar taklif qilgan. Uning tadqiqotlarida resurslar ustidan nazoratning huquqiy va amaliy jihatlari keng yoritilgan [4] deb ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi Richard Mattessich hisob va hisobot nazariyasiga asos soluvchilardan biri hisoblanadi. Uning yondashuvi – aktiv sifatida tan olish uchun iqtisodiy manfaat, nazorat va baholash mumkinligi kabi mezonlarning aniqligi muhimligini ta'kidlaydi [5].

Deloitte, PwC, EY, KPMG kabi xalqaro audit kompaniyalari mutaxassislari ushbu kompaniyalar tarkibidagi ekspert va mutaxassislar 41-son "Qishloq xo'jaligi" nomli BHXS bo'yicha keng tahlillar va metodik tavsiyalar bergan. Ular biologik aktivlar hisobini yaxshilash uchun haqiqiy bozor ma'lumotlariga tayanish va to'g'ri klassifikatsiyani muhim deb hisoblashgan [6].

METODOLOGIYA

Biologik aktivlarni tan olish mezonlari va uning klassifikatsiyasi moliyaviy hisobot xalqaro standartlari asosida masalalarini o'rganish, dalillar to'plash, mantiqiy fikrlash, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo'yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar, kuzatish va davr oralig'ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aktivlar tushunchasining ahamiyati ma'lum darajada o'zgargan. Aktivlar avval asosan moddiy aktivlar deb tushunilgan, ya'ni ishlab chiqarish jarayonini ta'minlovchi vositalar sifatida qaralgan. Hozirgi kunda esa aktivlar muhim o'rin tutib, u axborotga asoslangan holda yuritilmoqda. Masalan, iste'molchilarning oldidagi brendi turibdi. Bu shuni anglatadiki, zamonaviy tushunchada korxonalarining "nou-xau" sini tashkil etadi, ularni nomoddiy aktivlar sifatida tan olinadi.

Bizga ma'lumki, boshqa aktivlardan farqli o'laroq, biologik aktivlar odatda, quyidagicha tushuniladi: u o'simlik yoki hayvon bo'lib, biologik o'zgarishlar jarayonida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yoki qo'shimcha biologik aktivlar berishi, shuningdek, boshqa usullar orqali iqtisodiy foyda keltirishi mumkin bo'lgan ob'ekt hisoblanadi. Biologik aktivlarga o'simliklar ham kiradi, jumladan, ko'p yillik ekinlar ular xo'jalikga qo'shimcha biologik aktivlar berib turadi va bir operatsion sikldan ortiq muddatda foydalaniladi. amaliyotida bunday o'simliklar aylanmadan tashqari aktivlar sifatida tasniflanadi. Agar o'simliklar xo'jalikga 12 oydan ko'p bo'lmagan muddat ichida iqtisodiy foyda keltirishga qodir bo'lsa, ular joriy aktivlar (aylanma biologik aktivlar) sifatida hisobga olinadi.

O'simliklardan farqli o'laroq, hayvonlar yerga bog'lanmagan. Qoramolchilikda uzoq muddatli biologik aktivlar 12 oydan ortiq davr mobaynida qo'shimcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari berib turadi. Buxgalteriya hisobi yuritishda hayvonlarning yosh nasllari aylanma aktivlar sifatida tasniflanadi.

Biologik aktivlarni uzoq muddatli va qisqa muddatli turlarga ajratish asosli hisoblanadi. Chunki, standart tomonidan taklif etilgan klassifikatsiya belgilari - pishgan va pishmagan, meva beruvchi va meva bermaydigan biologik aktivlar asosiy klassifikatsiya belgisi sifatida qo'llanilishi mumkin emas. Meva beruvchi va iste'mol qilinadigan biologik aktivlar faqatgina asosiy aktivlarga tegishli bo'lib, ularni joriy biologik aktivlar bilan bog'lash imkoni yo'q. Yetilgan va yetilmagan aktivlar esa ham uzoq muddatli, ham qisqa muddatli aktivlar bo'lishi mumkin.

Shu sababli, biologik aktivlarning muomala muddati bo'yicha aniq klassifikatsiya belgisi talab etiladi, bu belgi bir vaqtning o'zida buxgalteriya hisobiga zid kelmasligi va biologik aktivlarni aylanmaydigan aktivlar va aylanma aktivlar bo'yicha aniq ajratish imkonini berishi kerak.

Biologik aktivlarni muomala muddati bo'yicha ajratish uzoq muddatli va joriy aktivlarga ushbu talablarga javob beradi, standart talablariga zid kelmaydi va buxgalteriya hisobida aniq va ishonchli yuritishga yordam beradi.

Shuningdek, uzoq muddatli biologik aktivlarni quyidagi ikki guruhga ajratiladi: xo'jalikda foydalaniladigan uzoq muddatli biologik aktivlar; asosiy biologik aktivlarni shakllantirish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli biologik aktivlar. Bu guruhga qishloq xo'jaligidagi yosh bog'lar, uzumzorlar, chorvachilikdagi asosiy podani to'ldirish uchun yetishtirilayotgan yosh hayvonlar kiradi. "Yosh hayvonlar" uzoq muddatli biologik aktivlar hali ishlatish uchun tayyor emas, lekin ular uzoq muddatli foydalanish uchun mo'ljallangan.

Biologik aktivlarni o'rganishning nazariy-metodologik jihatlari ko'pgina iqtisodiy tadqiqotlarning muhim mavzusiga aylangan. Biologik aktivlarning iqtisodiy munazarasini ko'pgina qishloq xo'jalik korxonalarining asosiy faoliyati – qishloq xo'jalik mahsulotlarni ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan nisbatan yangi iqtisodiy kategoriya sifatida qaraydilar. Bu kategoriyaning buxgalteriya hisobi tizimiga joriy etish, korxonalarda samarali hisob siyosati va schyotlar tizimini shakllantirish nuqtai nazaridan samaralidir. Bu esa moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan juda muhim bo'lib, ularga ko'ra biologik aktivlarni hisobga olishning barcha jihatlari to'liq aks etishi kerak.

41-son "Qishloq xo'jaligi" nomli BHXSga muvofiq, "biologik aktiv - bu tirik hayvon yoki o'simlik" hisoblanadi. Bunday ta'rif biologik aktivni alohida iqtisodiy kategoriya sifatida to'liq ochib bermaydi. Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida biz biologik aktiv ta'rifiga aniqlik kiritdik. Bu ta'rif biologik aktivning iqtisodiy mohiyatini alohida hisob kategoriyasi sifatida to'liqroq ochib beradi. Biz uning tarkibiga muhim xususiyatlarni qo'shish taklifini berdik, ya'ni o'tgan biologik jarayonlar (o'zgarishlar, transformatsiyalar) natijasida vujudga kelgan bo'lishi; keyingi biotransformatsiyaga (xo'jalik tomonidan boshqariladigan va o'lchanadigan) yaroqli bo'lishi.

Biologik aktivlar bu o'tgan xo'jalik hayoti voqealari (o'zgarishlar, transformatsiyalar) natijasida yaratilgan o'simliklar va hayvonlar bo'lib, ular keyingi (xo'jalik tomonidan boshqariladigan va o'lchanadigan) biotransformatsiya orqali iqtisodiy foyda olish uchun yaroqlidir.

Taqdim etilgan ta'rifning afzalligi shundaki, unda biologik aktiv sifatida tasniflanadigan aktivga qo'yiladigan talablar aniq belgilangan deb hisoblaymiz. Demak, biologik aktivlar alohida aktivlar toifasi bo'lib, ular qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq va o'ziga xos xususiyatlarga ega (ishlab chiqarish mavsumiyliigi, iqlim sharoitiga bog'liqlik va boshqalar) hamda boshqa turdagi aktivlardan alohida ko'rsatilishini talab qiladi.

Bugungi kunda biologik aktivlar sifatida tan olish bo'yicha bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular amaliyotda qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Ulardan qiymatni ishonchli baholanishi, nazorat tushunchasini aniq belgilanib olishdagi qiyinchiliklar, hisob yuritishda malakali kadrlar yetishmasligi, xalqaro standartlarni to'liq joriy etishda qiyinchiliklar, hamda huquqiy bazaning yetarlicha emasligi kabi omillar bilan bog'liqdir. Bu kabi muammolarning yechimi qishloq xo'jaligi rivojlanishida, biologik aktivlarni to'g'ri hisobini yuritishning dolzarb masalalari hisoblanadi.

Biologik aktivlarni tan olish mezonlari bo'yicha fikrlar, asosan, aktivning iqtisodiy foyda keltirishi, nazorat qilinishi va ishonchli baholash mumkinligi asosida shakllangan. Dunyo olimlari ushbu mezonlarning amaliy tatbiqida yuzaga keladigan muammolarni turlicha ta'riflashgan.

Demak, yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, aktivni biologik aktiv sifatida tan olish mezonlari belgilanishi lozim. Bu mezonlar moliyaviy hisobot xalqaro standartlari, ayniqsa 41-son "Qishloq xo'jaligi" nomli BHXS asosida belgilanadi.

41-son “Qishloq xo‘jaligi” nomli BHXS biologik aktivlarni tan olish uchun quyidagi uchta asosiy mezonga javob berishi kerak:

- Xo‘jalik aktivlarini transformatsiyalar natijasida nazorat qilinishi kerak.
- Xo‘jalikning ushbu aktiv bilan bog‘liq kelajakdagi iqtisodiy foyda olish ehtimoli yuqori bo‘lishi.
- Aktivning haqqoniy qiymati ishonchli o‘lchanishini nazorat qilinishi.
- Klassifikatsiya mezonlari: faoliyati va muddatiga qarab.

Standart talab qiladigan mezonga muvofiq, xo‘jalik kelajakda yuqori ehtimollikda iqtisodiy foyda olishi lozim. Ayrim biologik aktivlardan foyda faqat bir necha yil o‘tgach olinishi mumkin. Bu davr mobaynida xo‘jalik ushbu biologik aktivdan foydalanishi, uni xo‘jalik faoliyatiga jalb etishi yoki ijaraga berishi lozim.

Aktivning haqqoniy qiymati ishonchli o‘lchanishini nazorat qilish imkoniyati xo‘jalik aktiv ustida qonunniy nazoratga ega bo‘lishi kerak (mulk huquqi, ijara, shartnomaviy huquqlar).

Biologik aktivlarni klassifikatsiya belgilari bo‘yicha guruhlash iqtisodiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Qishloq xo‘jaligi xo‘jaliklari biologik aktivlarining asosiy klassifikatsiyasi 41-son “Qishloq xo‘jaligi” nomli BHXSda bayon etilgan. Unga ko‘ra klassifikatsiya belgilari mavjud. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va qo‘shimcha biologik aktivlarni ko‘p marta olish imkoniyati bo‘yicha; yetilish darajasi bo‘yicha hisoblangan.

Moliyaviy hisobot xalqaro standartida berilgan klassifikatsiya, bizning fikrimizcha, biologik aktivlarning fiziologik xususiyatlari to‘g‘risida buxgalteriya hisobi uchun zarur ma‘lumotlarni berish imkonini beradi. Biroq, bu ma‘lumotlar to‘liq va puxta buxgalteriya hisobini tuzish uchun, ayniqsa o‘tish davrida, yetarli bo‘lmaydi.

Ishlab chiqarish amaliyotida buxgalteriya hisobini yuritishda boshqa turdagi klassifikatsiyalar qo‘llaniladi. Unda aktivlarni aylanma va aylanmadan tashqari aktivlarga ajratish tamoyili asos qilib olinadi. Qabul qilingan aktivlar klassifikatsiyasiga ko‘ra, chorvachilikda biologik aktivlar sifatida o‘sturuv va boquvdagi hayvonlar hisoblansa, aylanma aktivlar sifatida hamda asosiy podadagi hayvonlar aylanmadan tashqari aktivlar deb guruhlanadi. Hozirgi kunda 41-son “Qishloq xo‘jaligi” nomli BHXS nuqtai nazaridan bunday biologik aktivlar klassifikatsiyasi uchun mos kelmaydi. Biroq, standart talablariga ko‘ra, xo‘jaliklar har bir biologik aktivlar guruhi bo‘yicha alohida satrda balansda ma‘lumotlarni aks ettirishi lozim. Ishlab chiqarish amaliyotida esa, ma‘lumotlarni faqat “Aylanmadan tashqari aktivlar” va “Aylanma aktivlar” bo‘limlarida oshkor qilish mumkin.

41-son “Qishloq xo‘jaligi” nomli BHXS va hisob amaliyoti o‘rtasidagi aniqlangan nomoslashuvlarni bartaraf etish maqsadida, qishloq xo‘jaligi xo‘jaliklari aktivlari klassifikatsiyasida biologik aktivlarning o‘rnini aniqlaymiz.

Buxgalteriya hisobiga aks ettirishning metodologik asosi bo‘lgan biologik aktivlar klassifikatsiyasi to‘ldiradi. Xo‘jalik amaliyotida mavjud bo‘lgan va moliyaviy hisobot xalqaro standartlari tomonidan tavsiya etilgan aktivlar klassifikatsiyasi hisobni to‘liq takomillashtirish, biologik aktivlarning turli xillarini hisobga olish imkonini

to‘liq darajada bermaydi. Bundan tashqari, xo‘jalik amaliyotida “joriy biologik aktivlar” atamasi qo‘llanilmaydi.

Ko‘rsatilgan muammoli vaziyatni bartaraf etish, shuningdek, biologik aktivlarni buxgalteriya (moliyaviy) hisobotida tan olish va ko‘rsatishning metodologik asosini ta‘minlash maqsadida quyidagi biologik aktivlarning klassifikatsiyasini taklif qilamiz. Biologik aktivlarning hisobini yanada aniq va ishonchli yuritish maqsadida qishloq xo‘jaligi biologik aktivlarini klassifikatsiya qilish tizimiga qo‘shimcha o‘zgartishlar kiritish lozim. Quyidagi rasmga asosan qo‘shimcha guruhlar bo‘yicha izohlar orqali keltirib o‘tamiz (1-rasm).

Biologik aktivlar klassifikatsiyasi		41-son “Qishloq xo‘jaligi” nomli BHXS
Qishloq xo‘jaligi maxsulotlari va biologik aktivlarni ko‘p marotaba olish imkoniyati	iste‘mol qilinadigan; iste‘mol qilinmaydigan	
Pishish davriga ko‘ra	Pishgan; pishmagan	
Qishloq xo‘jaligi faoliyati turlari va yo‘nalishlar bo‘yicha	Biologik aktivlar usimlikchilik	bog‘dorlik, gulchilik, sabzavotchilik hamda boshqa qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga oid biologik aktivlar
	Biologik aktivlar chorvachilik	qoramolchilik, tuyachilik, qo‘ychilik, va boshqa yo‘nalishlarga oid aktivlar
Biologik aktivlarning turlari	Turlari bo‘yicha: ko‘p yillik o‘simliklar, ishchi va mahsuldor hayvonlar	
Xo‘jalikka tegishligi bo‘yicha	Xo‘jalikka tegishli bo‘lgan mulk: jumladan, ijaraga berilgan; ijaraga olingan; tekinga olingan mulk	
Biologik aktivlarning aylanish davriga ko‘ra	uzoq muddatli biologik aktivlar: ishchi va mahsuldor hayvonlar; ko‘p yillik o‘simliklar	Xo‘jalik faoliyatidagi biologik aktivlar
Ekologik yo‘nalishga ko‘ra	Ekologik, doimiy va genetik jihatdan o‘zgargan biologik aktivlar va qishloq xo‘jalik mahsulotlari	
Ishlatish maqsadiga ko‘ra	Xo‘jalikda foydalaniladigan Realizatsiya qilish uchun mo‘ljallangan	

1-rasm. Biologik aktivlarning klassifikatsiyasi¹

*Birinchi*dan, biologik aktivlarni qishloq xo‘jaligi faoliyati turiga qarab ajratish lozim ya‘ni, o‘simlikchilik (bog‘dorchilik, sabzavotchilik va boshqa) biologik aktivlari hamda chorvachilik (chorvachilik, parrandachilik va boshqa) biologik aktivlar. Albatta bu belgi bo‘yicha ajratish orqali biologik aktivlarni har bir faoliyat turi kesimida

¹ Muallif ishlanmasi

hisobga olish zarur, aks holda ma'lumotlarni hisobotda aks ettirishda chalkashlik yuzaga kelishi mumkin va natijada ma'lumotlar to'liqligini qamram olmaydi. Bu moliyaviy xalqaro hisobot standartlariga muvofiq hisobot tayyorlash va taqdim etish prinsiplaridan biri - ishonchlilik prinsipi buzilishiga olib keladi.

Ikkinchidan, biologik aktivlarni har bir turi bo'yicha alohida hisobga olish talab etadi. Biologik aktivlarni turlari va guruhlari bo'yicha hisobga olinishi har bir mahsulotni nazorat qilish hamda xarajatlarni alohida hisobga olish, tannarxni minimallashtirish imkonini beradi. Bu orqali axborotlar ishonchli bo'ladi, tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Masalan: *turlar bo'yicha* ko'p yillik ekinlar, buzoqlar va hokazo; *guruhlar bo'yicha* ishchi va mahsuldor hayvonlar.

Uchinchidan, "xo'jalikka tegishliligi" belgilari bo'yicha biologik aktivlar klassifikatsiyasiga kiritildi. Biologik aktiv korxonaga mulki bo'lish-bo'lmasligiga qarab, hisob yuritish turli xil bo'ladi. Biologik aktivlarni mulk huquqi asosida korxonaga tegishli yoki tegishli emasligi yoki ijaraga olingan holatlarda aniq ajratish, ularni balansda yoki balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olish imkonini beradi.

Ushbu klassifikatsiya doirasida *o'zining biologik aktivlari*- xo'jalik mulki bo'lgan hayvonlar va o'simliklar; *ijaraga olingan biologik aktivlar* - ma'lum muddatga ijara shartlari asosida foydalanilayotgan aktivlar hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi faoliyatida, ayniqsa chorvachilikda biologik aktivlar mulk huquqini tasdiqlash tavsiya etiladi. Masalan, chorva mollarini sotib olish, tug'ilish yoki ajratish paytida ularni tamg'lash yoki boshqa turda belgillash orqali tasdiqlash mumkin.

To'rtinchidan, biologik aktivlar klassifikatsiyasida yana bir muhim ahamiyatga ega bo'lgan belgisi bu- "*ekologik yo'nalishga ko'ra*" ajratish hisoblanadi. Hozirgi kunda an'anaviy ishlab chiqarish turlari bilan bir qatorda yangi turdagi mahsulotlar va biologik aktivlar ekologik toza va genetik modifikatsiya qilingan mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Yangi turdagi mahsulotlarni hisobga olish, ular uchun haqqoniy narxlarni belgilash, ularni hisob va buxgalteriya hisobotida aks ettirish hamda hisob uchun yangi atamalar tizimini shakllantirishni talab qiladi.

Beshinchidan, "Ishlatish maqsadiga ko'ra" biologik aktivlar klassifikatsiyasi Bu vosita ishlatish maqsadiga ko'ra moddiy qiymatliklarga ishlatiladi. Ular quyidagilarni tashkil etadi. *Chegaralarni belgilaydi* – nimanidir to'g'ri ishlatish yoki noto'g'ri foydalanishni ajratishda qo'llanadi. Masalan: Dori vositalari faqat ishlatish maqsadiga ko'ra qo'llanilishi kerak. *Huquqiy va texnik hujjatlarda keng qo'llaniladi* – texnik pasportlar, qonunlar, me'yoriy hujjatlarda bu ibora juda ko'p uchraydi. U ko'pincha foydalanish shartlarini belgilovchi bandlarda uchraydi. *Tasniflashda yordam beradi* – Mahsulotlar yoki xizmatlar ishlatish maqsadiga ko'ra guruhlariga bo'linishi mumkin. Masalan: materiallari ishlatish maqsadiga ko'ra tashqi va ichki ishlarga bo'linadi.

Bunday ajratib ko'rsatilgan biologik aktivlar klassifikatsiyasi belgilari mavjud biologik aktivlarni hisobga olishning samarali tashkil etish imkonini beradi. Xususan, alohida biologik aktivlarni haqqoniy qiymat asosida baholanadi, ularning miqdori va qiymatini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi faoliyati turi va biologik aktiv turiga qarab guruhlash uning faol bozordagi haqqoniy qiymatini aniqlashni osonlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, biologik aktivlar bu alohida aktivlar toifasi bo‘lib, ular normativ-huquqiy hujjatlarida mustaqil ravishda belgilanmagan va hisobga olish metodikalari, operatsiyalarni hujjatlashtirish, biologik aktivlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini buxgalteriya hisobining hisob raqamlarida va buxgalteriya (moliyaviy) hisobotida aks ettirish tartibini ishlab chiqishni talab etadi. Shuni ta’kidlash lozimki, biologik aktivlar klassifikatsiyasi iqtisodiy mazmunini mustaqil hisobga olishda muhim talablarni belgilaydi va bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi: biologik aktivini xo‘jalik faoliyatida ishlatiladi; biologik aktivini boshqa korxonalariga berishi yoki ijaraga olishi mumkin; biologik aktivlar shartnomaviy yoki boshqa huquqiy asoslardan kelib chiqishi mumkin (mulkiy, xo‘jalik faoliyati, ijara va hokazo); biologik aktiv boshqa aktivlardan va qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan ajratilgan bo‘lishi kerak.

Biologik aktivlarni tan olish mezonlarini aniqlash hamda biologik aktivlar klassifikatsiyasini ajratib ko‘rsatish muhim, uning ko‘rsatkichlari orqali buxgalteriya hisobini samarali olib borishda, axborotlarning to‘liqligida, to‘g‘ri bo‘lishida va eng muhimi kelajakda to‘g‘ri qaror qabul qilish imkoni beradi. Chunki, haqqoniy qiymat bo‘yicha baholashda muayyan biologik aktivlarning soni va qiymatini aniqlash, shuningdek, ularni qishloq xo‘jaligi faoliyati turi va biologik aktiv turi bo‘yicha guruhlash orqali xarajatlarni nazorat qilish, tannarxni pasaytirish imkonini beradi hamda aktiv bozorida haqqoniy qiymatni aniqlashni osonlashtiradi. Biologik aktivlar klassifikatsiyasi ularning buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotining to‘liqligini hamda sifatligini ta’minlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 41-son “Qishloq xo‘jaligi” nomli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (AV tomonidan 09.12.2022 y. 3400-son bilan ro‘yxatga olingan Moliya vazirining 10.11.2022 y. 61-son buyrug‘iga 26-ilova)
2. Захарова Е. В. Управление биологическими активами в сельскохозяйственных организациях: автореферат дисс. ... кандидата экономических наук. Ижевск, 2009.
3. Трушкина И. Р. Биологический актив: признание и оценка // Известия Международной академии аграрного образования. 2015. № 24. С. 172–175.
4. Herman Aguinis. Performance Management (2009). Applied Psychology in Human Resource Management (2010)
5. Richard Mattessich. Critique of Accounting: Examination of the Foundations and Normative Structure of an Applied Discipline (1995)
6. Xalqaro audit kompaniyalari (Deloitte, PwC, EY, KPMG): Deloitte: Bearer plants: Amendments to IAS 41 — To bear or not to bear. 2014. PwC: "Manual of Accounting – IFRS". 2022. EY: "International GAAP®". 2024. KPMG: "Insights into IFRS". 2024.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**